O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

O‘ZBEK OILALARIDA ER VA XOTIN O‘RTASIDAGI YUZAGA KELAYOTGAN NIZOLI MUNOSABATLARDA HISSIYOTLARNING O‘RNI

ps.f.f.d.(PhD) Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda dolzarb sanalgan oilaviy munosabatlar ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, hissiyotlar tufayli yuzaga kelayotgan nizolar tufayli oilalarda nosog‘lom muhitning hukm surishi, hissiyot, nizo, kelishmovchilik tushunchalari va ushbu kelishmovchiliklar natijasida yuzaga kelayotgan ajrimlarning ko‘payib borayotganligi, er va xotin o‘rtasidagi nizolarning sabablari ochib berilib, ularni bartaraf etish usullari yoritilib, xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, nizo, kelishmovchilik, hissiyot, er va xotin, ota-ona, shaxs, xulq-atvor, munosabat.

Bugungi kunda oilani mustahkamlash dolzarb masala sanalib, ularda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etilishiga qaramay, jamiyatimizda oilalarning barbod bo‘lish holatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotganligini, oilaviy munosabatlar ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi nizolar tufayli oilalarda nosog‘lom muhitning hukm surishi, turli xil hissiyotlarga berilishi sabab, oiladagi ruhiy ziddiyatlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi sanaladi. Har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan hamda oilasida ijobiy muhit hukm surgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his eta oladi. Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, oilalarda sog‘lom muhitni yaratish, oila qadriyatlari va oiladagi shaxslararo munosabatlarini shakllantirish orqali oilaviy munosabatlarini barqarorlashtirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlash orqali oila institutini mustahkamlash, “Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish[1] g‘oyasi negizida oila mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilandi. Komil insonni tarbiyalash va huquqiy davlatchilik asoslariga poydevor qurish maqsadida mustaqil yurtimizda 1998- yil — “Oila” yili, 2012-yil esa “Mustahkam oila” yili deb belgilanganligi bejiz emas.

Mamlakatimizda o‘zbek oilalarida o‘zaro munosabat turlari va ijtimoiy-psixologik omillari, oiladagi psixologik muhitini sog‘lomlashtirish, undagi shaxslararo munosabatlar, ota-onalarning o‘zaro munosabatlarini o‘smir shaxsiga ta’siri masalalarini O‘zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, H.Abdusamatov, R.Dushanov, V.M.Karimova, X.K.Karimov,

A.E.Kadirova, N.X.Lutfullayeva, G.Niyazmetova, R.S.Samarov, N.A.Sog‘inov, B.M.Umarov, M.A.Utepbergenov, O‘.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov, U.D.Qodirov va boshqalar tadqiq etishgan.

Oila atamasi bu – o‘zaro munosabatlar asosida birlashgan ota-ona, bolalar, aka-ukalardan tashkil topgan bir guruh sanaladi. Oila kelajakdagi munosib vorislarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalaydigan, qadriyat hamda milliy an’analarimizni kelajak avlodga o‘tkazadigan maskan sanaladi. Mamlakatimiz hamda xalqimizning tinch va xotirjam bo‘lishida oilalarning totuvligi ham katta ahamiyatga egadir. Ammo achinarli tomoni shundaki, o‘zbek oilalarida qaynona-kelin, er-xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kuyov o‘rtasida nizolarning uchrab turishidir. Oilalarda yuzaga kelayotgan turli nosog‘lom munosabatlarga nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy yoki jismoniy omillar balki oila a’zolarining turli hissiyotlarga berilib munosabatda bo‘lishi ham sabab bo‘layotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan hissiyot atamasiga ta’rif berib o‘tsak. Hissiyot bu – insonlarning atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga, boshqa insonlarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlardan kelib chiqadigan kechinmasi sanaladi. Har bir inson jamiyatning bir a’zosi sanaladi, shuningdek, inson sifatida atrof-muhitdagi narsa va hodisalarga o‘z munosabatini xolisona aks ettiradi. Insonlarning munosabatlari uning ongida his-tuyg‘ular, emotsional holatlar, yuksak ichki kechinmalar tarzida aks etishi ularda hissiyotni yuzaga keltiradi. Hissiyot tushunchasi insonlarning turmush tarzida har xil ma’nolarda qo‘llanadi. Kundalik turmushda hissiyot tushunchasi o‘rniga sezgilar, xohishlar, tilaklar, talablar, maqsadlar atamalaridan foydalaniladi. Agar oilaviy munosabatlarda ushbu tilaklar, talablar yoki maqsadlar me’yoridan oshib ketsa so‘zsiz munosabatlarda taranglik, kelishmovchiliklar yuzaga kela boshlaydi.

Respublikamiz psixolog olimalaridan professror Vasila Karimovaning “Oila psixologiyasi” nomli darsligida er va xotin o‘rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo‘luvchi hissiyotlarga quyidagilarni kiritib o‘tganlar: achchiqlanish, aybdorlik, arazlash, nafrat, tanqid qilish, turmush o‘rtog‘idan yiroqlashish, ketib qolish hamda befarqlik[2] kabi hissiyotlar. Darhaqiqat, oilalarda yuzaga kelayotgan munosabatlarda ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarda hissiyotlarning o‘rni katta ekanligini ta’kidlash lozim. Munosabatlarda yuzaga kelayotgan achchiqlanish holati oilaviy hayotda, munosabatlarda ko‘p uchraydigan holat sanaladi, bunday holat er yoki xotinda bir-biriga o‘zaro g‘amxo‘rlik yoki bog‘liqlik kamaygan vaziyatlarda paydo bo‘lishini aytish mumkin. Ushbu holat yuzasidan psixolog F. Perlzning shunday deb aytadi: “Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va o‘zaro muomalaga bo‘lgan intiqlikdir” deb o‘tgan. Haqiqatdan ham oilada er-xotin bir-biridan vaqti-vaqti bilan jiddiy sabablarsiz achchiqlanib, arazlab turishi, ularni o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatini yanada yaqinlashishiga, bir-biriga e’tiborli bo‘lishiga olib kelishini aytib o‘tish mumkin.

Er-xotin munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan hissiyotlardan yana biri bu nafrat hisoblanadi. Nafrat bu– er-xotinlar bir-biri bilan uzoq vaqt gaplashmay qo‘yishi, ataylab o‘zini yomonday ko‘rsatishi yoki huddi dushmaniga qaraganday muomala qilib munosabatga kirishishi hisoblanadi. Hozirgi kunda afsuski, bu hissiyot oilaviy hayotda tez-tez bo‘lib turayotganini ko‘rish mumkin. Bunday munosabat

insonni ich-ichidan zil ketishiga, ich-etini yeb qo‘yishiga hamda stress holatlarini yuzaga kelishiga olib keladi.

Er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda hissiyotlarning o‘rni juda muhim. Ularning o‘rtasida nizo yoki kelishmovchiliklarni yuzaga kelmasligi uchun har qanday holatda ham er yoki xotin o‘z hissiyotlarni jilovlay olish kerak. Ushbu holatlarni oldini olish uchun quyidagi xulosa va takliflarni berishimiz mumkin:

1. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarida odatda ko‘z yoshi, arazlash, achchiqlanish holatlari uchrab turadi. Bunday holatda ular bir-birini hissiyotlarini tushuntirib, ularni qabul qilish va qadrlash juda muhimdir.

2. Oilada er-xotin har doim bir-birini eshita olishi va tushuna olishi lozim. Ular o‘zlarining hissiyotlarini ifodalash usullariga e’tibor berishi kerak. Turli xil salbiy hissiyot va emotsiyalarga berilmasdan murojaat qilish, ularni o‘z muammolarini va istaklarini bartaraf bo‘lishiga va ularni tushunishiga yordam beradi.

3. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar odatda sabr va matonatni talab qiladi. Har bir holatda ham bir-biriga sabrli holatda yondoshsalar ular o‘rtasidagi munosabatda tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan xulosa va takliflarga har bir oilada er va xotin amal qilishsa, oilalarda nizolar soni kamayib, har bir oila mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. V.Karimova Oila psixologiyasi. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. T.2007. B.76

3. Ибайдуллаева, У. (2023). Er-xotin o‘rtasidagi yuzaga kelayotgan konfliktlarda oilaviy munosabatlarning o‘rni va ahamiyati. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 461-464.

4. Ибайдуллаева У., Тиркашева М. (2023). Oilaviy nizolar va ajrimlar-jamiyat zavoli. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 467-471.

5. Ibaydullayeva, U. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN PREVENTING CONFLICTS BETWEEN ADOLESCENT. Solution of social problems in management and economy, 1(7), 81-83.

6. У. Ибайдуллаева, М. Тиркашева, Г.Одилова Семейные разводы-как фактор общественного кризиса Вестник интегративной психологии. Выпуск 31, Бухара-Ярославль, Россия. 2024.

7. У. Ибайдуллаева Причины конфликтов между супругами и способы их устранения Вестник интегративной психологии. Выпуск 30, Бухара-Ярославль, Россия. 2023.

8. U.Ibaydullayeva. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

9. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilaviy nizolar va ajrimlar – jamiyat zavoli kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Jizzax-2023 2-qism

10. U.Ibaydullayeva, M.Tirkasheva Oilada ajrimlar yuzaga kelishi va unga olib keluvchi sabablar. Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar mavzusidagi 1- xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023

ZARAFSHON SHIMOLI YONBAG‘IRLARIDA TARQALGAN QORINOYOQLI MOLLYUSKALARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Uralov Ulug‘bek Baxriyevich
Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti
Qudratov Jasur Asilbekovich
Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti

Annotatsiya: Qorinoyoqli mollyuskalarning bioekologik xususiyatlari har doim ham tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan va diqqat markazida turgan muammolardan biri hisoblanib, ushbu muammo bo‘yicha chop etilgan turli yo‘nalishdagi maqolalar : N.D.Kruglov, S.D.Drozdova, T.N.Makarova(1975), N.D.Kruglov (1979,1980), YU.V.Sachkova(2002,2004), esa fikrimizni isboti sifatida qarash mumkin.

Kalit so‘zlar: bioekologik, gidrologik, gidrokimyoviy, fitofil, biotoplar, krwnofil, fitofil, telmatofil, fitoreofil.

Kirish: Mollyuskalar asosiy vakillarining ekologiyasi - ularni o‘rganishning dastlabki yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, qorinoyoqlilar bioekologik xususiyatiga ta’luqli ma’lumotlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, o‘rganilayotgan hudud mollyuskalariga oid ma’lumotlarni yetarli emas, mavjudlari ham fragmentar xarakterga ega. Shuning uchun, yuqoridagi ma’lumotdan kelib chiqib, o‘zimizning shaxsiy materiallar va tadqiqot natijalari asosida Nurota qorinoyoqli mollyuskalarining bioekologik xususiyatlariga oid ilk ma’lumotlar quyida keltirilgan.

Nurota tog‘lari qorinoyoqli mollyuskalarning yashash joyi va ekologik guruhlari O‘pkali qorinoyoqli mollyuskalarning ma’lum bir qismi suvda, yana boshqasi esa quruqlikda yashashga moslashgan.

Suvqorinoyoqli mollyuskalarining turli xil suv havzalarida tarqalishi ularning asosan suvning gidrologik va gidrokimyoviy rejimi, hamda atmosfera kislarodiga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Teri orqali nafas oluvchi o‘pkali suv mollyuskalari uchun suvda erigan kislarod muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bir qator o‘pkali suv mollyuskalari kislarod bilan to‘yingan suvlarda keng tarqalgan.[1.2]

Quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarning turli xil biotoplarda tarqalishi yoki bu biotoplar bo‘yicha tarqalishi, to‘g‘ridan – to‘g‘ri ekologik sharoitga bog‘liq.

Suv qorinoyoqli mollyuskalarning yashash joyi va ekologik guruhlari